
QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI TUMANDAGI MAKTABLARDA BO'LIB, TA'LIM SIFATI VA SHART-SHAROITLAR BILAN YAQINDAN TANISHMOQDA



Qo'shtepa tumani hokimi Anvarjon Abdullayev tumandagi barcha umumta'lim maktablarida bo'lib, ta'lim sifati va shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishmoqda.

Jumladan, tuman rahbari Qo'shtepa tuman ixtisoslashtirilgan maktabida bo'lib, bu yerdagi o'quv jarayonlari va yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, o'quv darslari va to'garaklar faoliyati bilan qiziqdi. Kutubxona, sport zali, o'quv xonalari, maktabning moddiy-texnik bazasi, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rgandi.

Maktabda ta'lim sifatini yanada yaxshilash, oliy ta'limga kirish qamrovni oshirish, o'quvchilarning sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish, kutubxona fondini boyitish va boshqa bir qator masalalar bo'yicha taklif va mulohazalar o'rtaga tashlanib, muhim vazifalar belgilandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-16 17:33:04